ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 129 — *137*

NAMANGAN QARLUQ SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI VA AREAL LINGVISTIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Shahlo Ahmadjonova[1]

Abstrakt

Mazkur maqolada Namangan qarluq shevalarining fonetik tizimi, tarixiy ildizlari hamda areal-lingvistik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Namangan vodiysi shevalarining qadimgi qarluq til qatlamlari bilan bog‘liqligi, fonetik o‘zgarishlarning tarixiy manbalardagi izlari, shuningdek, boshqa turkiy lahjalar bilan o‘zaro o‘xshashliklari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Namangan shevalarining shakllanishida qarluq etnik komponentining roli alohida o‘rin tutgani sababli tadqiqotda Karim Shoniyozovning “Qarluqlar va Qarluqlar davlati” asari, V.V. Reshetovning fonetik tadqiqotlari, Sh. Shoabdurahmonov, I. Darvishov, E. Begmatov, B. Jo‘rayev, S. Ibrohimov kabi olimlar merosi ilmiy manba sifatida jalb etildi. Ushbu manbalar Namangan vodiysi shevalarining qadimgi turkiy fonetik qatlamlarni saqlab qolgan markaziy hududlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Maqola davomida Namangan shevalarining fonetik xususiyatlari qiyosiy-areal metod asosida tahlil qilindi. Xususan, Reshetov tomonidan qayd etilgan “Sharqiy turkiy areal” tushunchasi asosida Namangan vodiysi shevalarining fonetik markaz sifatidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, Jo‘rayev va Begmatovning Qashqadaryo hamda Samarqand qarluq shevalarida uchraydigan fonetik hodisalar Namangan shevalari bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatildi. adqiqotning yana bir muhim jihati — Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining fonetik shakllanishi va semantik taraqqiyoti bo‘lib, bu jihat M. Saidova va H. Ismoilov tadqiqotlari asosida tahlil qilindi. Maqolada Namangan hududida *žijan, žijanak, quda, ene* kabi qadimgi turkiy kelib chiqishga ega bo‘lgan terminlarning fonetik shakllanishi, tarixiy rivoji va shevada yangicha talaffuzda yashab kelayotganligi ilmiy asosda ko‘rsatildi.

[1]**Ahmadjonova Shahlo** - *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*
E-mail - shahlo.ahmadjonova2003@gmail.com
ORCIDID - *https://orcid.org/0009-0005-0193-2103*
Iqtibos uchun. *Ahmadjonova Sh. 2025. “Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari”* O‘zbekiston: til va madaniyat: Folklorshunoslik va Shevashunoslik. 2. 129-137.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/HZXX8948

Kalit so‘zlar: Namangan shevasi, qarluq lahjasi, fonetik xususiyat, areal lingvistika, qadimgi turkiy til, tarixiy fonetika.

Namangan vodiysi shevalarining shakllanishida tarixiy-etnik omillar muhim o‘rin tutadi. Bu jihatdan Karim Shoniyozovning “Qarluqlar va Qarluqlar davlati” asari qimmatli manba hisoblanadi. Muallif o‘z tadqiqotida qarluq qavmlarining Markaziy Osiyodagi qadimiy joylashuvi, ularning migratsion yo‘nalishlari va siyosiy-sotsial jarayonlardagi o‘rnini tahlil qilgan [Шониёзов, 1990; 57–83].

Shoniyozovning ta’kidlashicha, qarluq qavmlari milodiy VIII–IX asrlarda Farg‘ona vodiysi, Chu–Talas havzasi hamda Sharqiy Turkiston hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, ular bu yerlarning mahalliy turkiy aholisi bilan uzoq muddatli etno-madaniy aloqalar o‘rnatgan [Шониёзов, 1990; 59]. Shu jarayon natijasida qarluq tilining ayrim fonetik va leksik xususiyatlari bu mintaqadagi turkiy tillar tizimiga, jumladan, hozirgi Namangan vodiysi shevalariga singib ketgan.

Namangan vodiysi ham ana shunday qadimiy qarluq arealining sharqiy qismiga kirgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki vodiyning geografik joylashuvi — Chu vodiysi, O‘sh, Qoshg‘ar va Andijon oralig‘idagi qadimiy yo‘llar chorrahasida joylashgan. Bu joylar qarluq qavmlarining tarixiy harakat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Shu bois, Namangan shevalarida uchraydigan ayrim qadimiy fonetik belgilar — cho‘ziq unlilar tizimi (ā, ō, ū), ğ tovushining faol ishlatilishi, sinkopa hodisalari — aynan o‘sha tarixiy qatlamlarning til tizimidagi izlarini aks ettiradi [Шониёзов, 1990; 63].

Shoniyozov bu jarayonni umumturkiy tarixiy hodisa sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, qarluq tilining areal ta’siri O‘rta Osiyoning ko‘plab turkiy shevalarida, xususan Farg‘ona vodiysi atrofidagi lahjalarda, o‘z aksini topgan. Shunday qilib, bu tarixiy tahlillar Namangan shevalarining fonetik tizimida uchraydigan arxaik unsurlar — qadimgi unli uyg‘unligi, cho‘ziq unlilar va ğ tovushining mavjudligi — qarluq etnik qatlamining tildagi izlari ekanini ko‘rsatadi [Шониёзов, 1990; 65].

Fonetik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Namangan shevalarida qadimgi turkiy cho‘ziq unlilar tizimi saqlanib qolgan. Masalan: bo‘ldi – böldi, to‘g‘ri – tūğri, yo‘l – yōl kabi misollar aynan qadimgi qarluq fonetik tizimining izidir [Шоабдурахмонов, 1963; 62].

V.V. Reshetov Namangan shevalarining fonetik tizimi qadimgi turkiy tildagi tovush uyg‘unligiga asoslanganini qayd etadi. Unga ko‘ra, bu shevalarda unli uyg‘unligi va cho‘ziq unlilar jarayoni eng faol holatda saqlangan. Reshetov cho‘ziq unlilarning fonetik tizimdagi rolini qadimgi turkiy tillardagi unli uzunlik oppozitsiyasi bilan bog‘laydi va bu hodisa Namangan hamda Farg‘ona vodiysi shevalarida faol saqlanib qolganini qayd etadi [Решетов, 1957; 112].

I. Darvishov o‘zining “Namangan viloyati janubiy shevalari ma-

teriallari asosida” nomli tadqiqotida ushbu hududdagi shevalarning qadimiy xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan. Uning ma’lumotlariga koʻra, janubiy tumanlarda unli uygʻunligi, jarangli va jarangsiz undoshlarning almashinuvi (b/p, g/k, d/t kabi) koʻp uchraydi. Darvishov Namangan janubiy tumanlarida choʻziq unlilar bilan bir qatorda toraygan unlilar (masalan, e → i, o → u) ham faol ishlatilishini qayd etgan. U “tovush torayishi nutq tezligining ortishi bilan bogʻliq boʻlgan fonetik iqtisod hodisasi” ekanini ta’kidlaydi [Дарвишов, 1999; 48].

E. Begmatov “Samarqand vohasi shevalari” asarida keltirgan unli uygʻunligi va undosh almashuvlari Namangan shevalarida ham uchraydi. Masalan, Samarqand shevalarida q → k, ğ → g oʻzgarishlari faol boʻlsa, Namangan shevalarida ham togʻ → tog, yoq → joq kabi misollar kuzatiladi [Бегматов, 1982; 97].

Shuningdek, Bolta Joʻrayevning “Yuqori Qashqadaryo oʻzbek shevalari” asarida keltirilgan choʻziq unlilar tizimi Namangan shevalariga oʻxshash tarzda faol ishlaydi. U bu jarayonni qadimgi qarluq tilining relikti sifatida baholaydi [Жўраев, 1981; 54].

Namangan shevalarida ba’zi qadimiy fonetik hodisalar hamon faol: masalan, sinkopa (tovush tushishi) va assimilyatsiya hodisalari. Olmayman → olmiman, boʻladi → bōdi kabi shakllar tildagi fonetik ixchamlashishning natijasidir [Дарвишов, 1999; 71].

Fargʻona tip shevalarga kiruvchi Namangan (Uychi, Chortoq, va boshqa) shevasi oʻzida umlaut (атъ//є·тъ) va o’ziga xos affikslar (-нә): йүддүнәмъ// yuvdinglarmi?) (ld), (rd) komplekslari (dd) bo’lishi (ld>dd): кеддъ//keldi, (rd>dd): бэддъ//bordi) bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlari bilan u Farg’ona, Qo’qon, Marg’ilon, Andijon va boshqa shevalardan farqlanadi [Шоабдурахмонов, 1971; 402].

Namangan shevalarini oʻrganishda K. Shoniyozovning tarixiy qarashlari bilan bir qatorda Reshetov, Shoabdurahmonov va Darvishovlarning fonetik kuzatuvlari katta ahamiyatga ega boʻlib, ular bu shevalarni qadimgi turkiy qatlamlarning jonli merosxoʻri sifatida koʻrsatadilar [Reshetov, 1985, 51-bet].

Saidova oʻzining Namangan shevalariga bagʻishlangan tadqiqotida bu hududda keng, yoʻgʻon, choʻziq unlilarning talaffuzi oʻzbek adabiy tilidan farq qilishini va ular fonetik tizimning asosiy belgisini tashkil etishini ta’kidlaydi [Саидова, 1995; 28].

Namangan qarluq shevalari turkiy tillar tizimida qadimiy fonetik qatlamlarni saqlab qolgan hududiy tarmoq sifatida oʻrganilgan. Ushbu shevalarning fonetik, morfologik va leksik jihatlari qarluq lahjasi doirasida shakllangan tarixiy rivojlanish bosqichlarini ochib beradi [Решетов, 1985, 45-bet].

Karim Shoniyozov oʻzining “Qarluqlar va Qarluqlar davlati”

asarida qarluqlar tarixi, ularning joylashuvi hamda madaniy aloqalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Unga koʻra, qarluqlar VIII–IX asrlarda Oʻrta Osiyoning turli hududlarida yashab, Fargʻona vodiysi, xususan Namangan atroflarida mustahkam oʻrnashgan [Шониёзов, 1990; 83]. Shu sababli Namangan shevalarining fonetik tizimi oʻzida qadimgi qarluq tili unsurlarini toʻliq aks ettiradi.

Qarluq lahjasi vakillarining eng qadimgi xususiyati — bu choʻziq unlilar tizimidir. V.V. Reshetov buni oʻzining fonetik tadqiqotlarida ta'kidlab, choʻziq unlilar oʻzbek tili fonologik tizimining markaziy unsurlaridan biri ekanini qayd etgan [Решетов, 1957; 115]. Uning fikricha, ā, ō, ū tovushlari qadimgi turkiy til davridan saqlanib qolgan eng muhim belgilar boʻlib, Namangan shevalarida bu tovushlar mustaqil fonematik ahamiyat kasb etadi.

Sobirjon Ibrohimov "Oʻzbek tilining Andijon shevasi" nomli tadqiqotida Andijon va Namangan shevalari oʻrtasida fonetik jihatdan kuchli oʻxshashlik borligini koʻrsatadi. U, xususan, lablangan unlilar (o, u, ö, ü) va tovush uygʻunligi jihatidan Namangan shevalarining Andijon shevalariga juda yaqin ekanini ta'kidlaydi [Ibrohimov, 1998, 36-bet].

E. Begmatov esa "Samarqand vohasi shevalari" nomli asarida Samarqand qarluq shevalarida jarangli va jarangsiz undoshlar almashinuvi hamda unli uygʻunligining faol saqlanganini koʻrsatadi. Bu jihatdan u Namangan shevalariga oʻxshashlikni qayd etadi. Masalan, boʻladi – bōdi, ketadi – keti, koʻrdi – kördi kabi shakllar ikki hudud uchun umumiy xususiyatdir [Бегматов, 1982; 97].

Bolta Joʻrayev "Yuqori Qashqadaryo oʻzbek shevalari" nomli ishida choʻziq unlilar va tovush uygʻunligi masalalarini oʻrganib, bu hodisalarning tarixiy ildizini qarluq davriga olib boradi. Unga koʻra, Qashqadaryo va Namangan shevalarida sinkopa (tovush tushishi), assimilyatsiya, disimilyatsiya hodisalari juda faol boʻlib, bu ularning qadimgi fonetik tizimni saqlab qolganligini koʻrsatadi [Жўраев, 1981; 58].

Reshetov "Areal lingvistika" asarida bu holatlarni "areal izlar" deb ataydi va Namangan vodiysi shevalarini "Sharqiy turkiy areal" markaziga joylashtiradi [Решетов, 1985; 51]. Unga koʻra, Namangan shevalarining fonetik tizimi Fargʻona vodiysi boʻylab shakllangan qadimiy areal qatlamni ifodalaydi.

Fonetik oʻzgarishlarning asosiy sababi tildagi dinamik moslashuv jarayonidir. Masalan, yoq → joq, togʻ → tog, qiz → kiz kabi shakllar tovushlarning yumshashi yoki jarangsizlanishining tabiiy natijasidir [Дарвишов, 1999; 71].

Muhabbat Saidova "Namangan shevasida qarindoshlik terminlari" nomli asarida tilning leksik qatlamini fonetik tahlil asosida oʻrganadi. Unga koʻra, ene, jiyan, quda, jiyanak kabi atamalardagi -n, -y, -k tovushlarining almashuvi qadimgi qarluq tilining fonetik tuzil-

masiga borib taqaladi [Саидова, 1995; 33].

I. Ismoilov “Turkiy xalqlarda qarindoshlik terminlari” asarida ushbu terminlarning umumturkiy xususiyatini yoritadi. U Namangan shevalaridagi ene, jiyan kabi so‘zlarning shakllanish jarayonini qadimgi turkiy morfemalarga bog‘laydi [Исмоилов, 1991; 72].

Bu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Namangan qarluq shevalarida fonetik tizim qadimgi qatlamlarni saqlagan holda, yangi talaffuz hodisalari bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, cho‘ziq unlilar, lablangan unli uyg‘unligi, assimilyatsiya, sinkopa jarayonlari tildagi fonetik evolyutsiyaning tabiiy ko‘rinishidir.

Shuningdek, Reshetov “Osnovy fonetiki i grammatiki uzbekskogo yazyka” asarida Namangan shevalarida unli uyg‘unligi jarayoni boshqa turkiy tillarga nisbatan kengroq ekanini, bu esa qadimgi til unsurlarining jonli saqlanayotganini ko‘rsatadi [Решетов, 1957; 118].

Bu jihatdan Namangan shevalari bilan Andijon, Farg‘ona va Qashqadaryo shevalari o‘rtasida kuchli fonetik o‘xshashlik mavjud. Masalan, q → k, ğ → g o‘zgarishlari, cho‘ziq unli hodisalari, jarangli undoshlarning pasayishi — bularning barchasi areal umumiylikni isbotlaydi [Дарвишов, 1999; 79].

Ismoilov bu jarayonni turkiy tillardagi tarixiy “fonetik parallelizm” hodisasi sifatida baholab, uni areal kontaktlar natijasi deb hisoblaydi [Исмоилов, 1991; 71]

Namangan shevalari fonetik tizimi o‘zining qadimiylik darajasi, ichki uyg‘unligi va tarixiy qatlamlarni saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan ular turkiy tillar oilasidagi qadimgi qarluq guruhiga mansub tillarning eng yaqqol namunasidir [Решетов, 1985; 51].

Areal lingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, Namangan shevalari Sharqiy turkiy areal markazida joylashgan bo‘lib, u qadimgi turkiy tilning tovush tizimini eng to‘liq saqlab qolgan. Reshetov bu hududni “fonetik markaz” deb ataydi va bu yerda unli uyg‘unligi hamda cho‘ziq unlilar eng faol ishlatilishini ta’kidlaydi [Решетов, 1985; 45].

Namangan shevalaridagi eng muhim fonetik belgilar – lablangan unli uyg‘unligi va cho‘ziq unlilar tizimi bo‘lib, ular qadimgi turkiy tilning asosiy xususiyatlaridandir. Bu belgilar hozirgi adabiy o‘zbek tilida sustlashgan bo‘lsa-da, mahalliy shevalarda faol saqlanmoqda: ko‘r – kördi, tuz – türük, o‘g‘il – uğul kabi shakllar bunga misol bo‘la oladi [Шоабдурахмонов, 1963; 62].

I. Darvishov Namangan janubidagi shevalarni o‘rganish davomida unli uyg‘unligi va cho‘ziq unlilar tizimi hali ham faol ekanini aniqlaydi. Unga ko‘ra, bu qadimgi qarluq fonetik tizimining “jonli relikti” bo‘lib, tildagi tarixiy qatlamlarning saqlanib qolganligini ko‘rsatadi [Дарвишов1999; 71].

Namangan shevalarida assimilyatsiya va disimilyatsiya hodisalari ham keng tarqalgan. Masalan, yoq → joq, qiz → kiz, tog‘ → tog kabi shakllar tovushlar orasidagi moslashuv va o‘zgarish natijasidir [Begmatov, 1982, 97-bet].

Bu jarayonlar Namangan shevalarini Andijon va Toshkent shevalariga fonetik jihatdan yaqinlashtiradi. S. Ibrohimov “O‘zbek tilining Andijon shevasi” tadqiqotida unli uyg‘unligi va ğ tovushining talaffuzi jihatidan Andijon va Namangan shevalari o‘rtasida kuchli o‘xshashlik borligini qayd etgan [Ibrohimov, 1998; 36].

Muhabbat Saidova esa Namangan shevasidagi qarindoshlik terminlarining fonetik shakllarini o‘rganib, ularning ko‘pi qadimgi qarluq tilidagi shakllar bilan mos tushishini aniqlagan. Masalan, jiyan, quda, jiyanak kabi so‘zlar qadimgi fonetik tizimni saqlagan [Саидова, 1995; 33].

I. Ismoilov o‘z tadqiqotida bu terminlarning fonetik shakllanishini qadimgi turkiy ildizlarga bog‘laydi va ularni areal-lingvistik aloqalar natijasi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, Namangan shevalaridagi ayrim tovush o‘zgarishlari turkiy tillardagi fonetik parallelizm hodisasining natijasidir [Исмоилов, 1991; 72].

Tilning fonetik tizimidagi bu o‘zgarishlar nafaqat tarixiy merosni, balki ijtimoiy-lingvistik omillarni ham aks ettiradi. Chambers va Trudgill “Dialectology” asarida dialektlardagi fonetik o‘zgarishlarni “tilning ichki dinamizmi” bilan izohlaydi. Ular fikricha, har bir dialekt o‘z ijtimoiy konteksti bilan birga shakllanadi, shuning uchun talaffuzdagi o‘zgarishlar hududiy, ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlarga bog‘liq bo‘ladi [Chambers & Trudgill, 2004; 142].

Areal-lingvistik taqqoslashlar shuni ko‘rsatadiki, Namangan shevalarida ko‘rdi – kördi, bo‘ldi – böldi, tug‘di – tūg‘di kabi shakllar qadimgi fonetik tizimning saqlanib qolganligini bildiradi, biroq yōl – yol kabi yangilangan talaffuz shakllari tilning ichki rivojini ifodalaydi [Дарвишов, 1999; 79].

Bu holat tildagi tarixiy qatlamlarning birgalikda yashab kelayotganini, ya’ni fonetik tizimda qadimiy unsurlar bilan yangi o‘zgarishlarning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Namangan shevalarining bu xususiyati ularni boshqa o‘zbek lahjalaridan farqlab turadi va turkiy tillar fonetikasi tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega [Решетов, 1985; 51].

Namangan qarluq shevalari o‘zbek tili dialektlar tizimida eng qadimiy fonetik xususiyatlarni o‘zida saqlab qolgan hududiy tarmoq sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Namangan vodiysi qadimgi qarluq qabilalarining muhim etnolingvistik markazi bo‘lib, bu jarayon shevalarning fonetik rivoji va tarixiy ko‘rinishlariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Cho‘ziq unlilar tizimi, lablangan unli uyg‘unligi, ğ tovushining faol ishlatilishi, sinkopa, assimilatsiya va boshqa fonetik jarayonlar aynan qadimgi qarluq til qatlami-

dan meros bo‘lib, hozirgacha jonli shaklda saqlanib kelmoqda.

Namangan shevalari nafaqat tarixiy fonetik reliktlarni saqlagan, balki vaqt o‘tishi bilan yangi fonetik xususiyatlarni ham ishlab chiqargan. Bu jarayon areal lingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, Namangan hududi Sharqiy turkiy tillar arealining markaziy qismida joylashganini ko‘rsatadi. Reshetov tomonidan asoslangan “fonetik markaz” nazariyasi aynan Namangan shevalariga tatbiq etilganda, bu hududning turkiy fonetik tizimdagi alohida mavqei yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Namangan shevalarining fonetik strukturasi Andijon, Farg‘ona, Samarqand va Qashqadaryo qarluq shevalari bilan o‘xshash bo‘lsa-da, unda bir qator noyob fonetik belgilar mavjud. Bu esa Namangan fonetik tizimini mustaqil dialekt areali sifatida tavsiflash imkonini beradi. Darvishov, Shoabdurahmonov, Jo‘rayev, Begmatov kabi olimlar tomonidan keltirilgan kuzatuvlar shu fikrni tasdiqlaydi.

Namangan shevalaridagi leksik-fonetik o‘zgarishlar — ayniqsa qarindoshlik terminlarining fonetik shakllanishi — turkiy tillarning qadimgi ildizlari va hozirgi zamon nutqini bog‘lovchi muhim lingvistik ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon M. Saidova va H. Ismoilov tadqiqotlari asosida chuqur o‘rganilib, Namangan shevalarining turkiy tilshunoslikdagi o‘rni yanada aniqlashtirildi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot Namangan qarluq shevalarining fonetik tizimi tarixiy, areal va qiyosiy yondashuvlar asosida mukammal tahlil qilinganini ko‘rsatadi. Natijalar o‘zbek tili dialektologiyasi, tarixiy fonetika hamda umumturkiy tilshunoslik uchun muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

Шониёзов К. *Қарлуқлар ва Қарлуқлар давлати.* – Тошкент: Фан, 1990. – 57–83 б.

Шоабдурахмонов Ш. *Ўзбек тили фонетикаси.* – Тошкент: Фан, 1963. – 45–62 б.

Дарвишов И. *Наманган вилояти жанубий шевалари материаллари асосида.* – Тошкент, 1999. – 12–79-бетлар.

Решетов В.В. *Основы фонетики и грамматики узбекского языка.* – Ташкент: Фан, 1957. – 112–125 б.

Решетов В.В. *Ареал лингвистика.* – Ташкент: Фан, 1985. – 42–51-бетлар.

Бегматов Э. *Самарқанд воҳаси шевалари.* – Тошкент: Фан, 1982. – 64–97 б.

Жўраев Б. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари.* – Тошкент, 1981. – 54–74 б.

Саидова М. *Наманган шевасида қариндошлик терминлари.* – Наманган: НДУ, 1995. – 28–33-betlar.

Исмоилов И. *Туркий халқларда қариндошлик терминлари.* – Тошкент: Фан, 1966.

Иброҳимов С. *Ўзбек тилининг Андижон шеваси.* – Андижон: АДУ, 1998. – 36 б .

Chambers J.K., Trudgill P. *Dialectology (2nd ed.).* – Cambridge: CUP, 2004. – p.87, p.142.

PHONETIC FEATURES AND AREAL LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE NAMANGAN QARLUQ DIALECTS

Shahlo Ahmadjonova[1]

Abstract

This article extensively analyzes the phonetic system, historical roots, and areal-linguistic characteristics of the Namangan Qarluq dialects. During the study, the relationship of the Namangan Valley dialects with the ancient Qarluq language layers, traces of phonetic changes in historical sources, as well as their similarities with other Turkic dialects were analyzed based on scientific sources. Since the role of the Qarluq ethnic component in the formation of the Namangan dialects occupies a special place, the study involved Karim Shoniyozov's work "Qarluqs and the Qarluq State", V.V. Reshetov's phonetic studies, and the heritage of such scholars as Sh. Shoabdurahmonov, I. Darvishov, E. Begmatov, B. Jo'rayev, S. Ibrohimov as scientific sources. These sources confirm that the dialects of the Namangan Valley are one of the central regions that have preserved the ancient Turkic phonetic layers. In the course of the article, the phonetic features of the Namangan dialects were analyzed based on the comparative-areal method. In particular, the position of the Namangan Valley dialects as a phonetic center was scientifically substantiated based on the concept of the "Eastern Turkic areal" noted by Reshetov. It was also shown that the phonetic phenomena found in the Kashkadarya

[1]*Ahmadjonova Shahlo - Master's student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*
E-mail - shahlo.ahmadjonova2003@gmail.com
ORCID ID - https://orcid.org/0009-0005-0193-2103
For citation: *Ahmadjonova Sh. 2025. "Phonetic features and areal linguistic characteristics of the Namangan qarluq dialects*" Uzbekistan: language and culture: Folklore and Linguistics. 2. 129-137.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/HZXX8948

and Samarkand Karluk dialects of Juraev and Begmatov are directly related to the Namangan dialects. Another important aspect of the study is the phonetic formation and semantic development of kinship terms in the Namangan dialects, which was analyzed based on the research of M. Saidova and H. Ismailov. The article scientifically demonstrated the phonetic formation, historical development, and survival of terms of ancient Turkic origin in the Namangan region in a new pronunciation.

Key words: Namangan dialect, Karluk dialect, phonetic features, areal linguistics, ancient Turkic language, historical phonetics.

References

Шониёзов К. *Қарлуқлар ва Қарлуқлар давлати.* – Тошкент: Фан, 1990. – 57–83 б.

Шоабдурахмонов Ш. *Ўзбек тили фонетикаси.* – Тошкент: Фан, 1963. – 45–62 б.

Дарвишов И. *Наманган вилояти жанубий шевалари материаллари асосида.* – Тошкент, 1999. – 12–79-бетлар.

Решетов В.В. *Основы фонетики и грамматики узбекского языка.* – Ташкент: Фан, 1957. – 112–125 б.

Решетов В.В. *Ареал лингвистика.* – Ташкент: Фан, 1985. – 42–51-бетлар.

Бегматов Э. *Самарқанд воҳаси шевалари.* – Тошкент: Фан, 1982. – 64–97 б.

Жўраев Б. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари.* – Тошкент, 1981. – 54–74 б.

Саидова М. *Наманган шевасида қариндошлик терминлари.* – Наманган: НДУ, 1995. – 28–33-betlar.

Исмоилов И. *Туркий халқларда қариндошлик терминлари.* – Тошкент: Фан, 1966.

Иброҳимов С. *Ўзбек тилининг Андижон шеваси.* – Андижон: АДУ, 1998. – 36-бет.

Chambers J.K., Trudgill P. *Dialectology (2nd ed.).* – Cambridge: CUP, 2004. – p.87, p.142.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com